

# **SPORT FAOLIYATI: KURASH**

## **yo‘nalishiga topshirgan abituriyentlar diqqatiga**

### **Hurmatli abituriyent!**

1. Siz 2021-2022 o‘quv yilida Andijon davlat universitetining 5610500-sport faoliyati: kurash bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirdingiz, endi kasbiy (ijodiy) imtihonda sport faoliyati asosi bo‘lgan kurash fanidan amaliy ish bajarib, o‘z jismoniy qobiliyatningizni namoyon etasiz. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari, qaysi guruhdha ekanligingizni va qaysi kuni imtihonga kelishingiz haqidagi ma’lumotlarni universitetimizning <http://adu.uz> saytidan olishingiz mumkin.

2. Siz o‘zingiz bilan pandemiya holatini inobatga olgan holda, xavfsizligingizni ta’minlash maqsadida himoya vositasi – tibbiy niqob bilan kelishingiz so‘raladi. Abituriyentlar o‘zlari bilan shaxsini tasdiqlovchi pasporti va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishlari shart.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonga siz sport faoliyati: kurash bo‘yicha sport kiyimingizni (milliy kurash formasi) olib kelasiz.

4. **HURMATLI OTA-ONALAR** imtihonlarga farzandingiz bilan kelmasligingizni iltimos qilamiz. Bu birinchi navbatda pandemiya sharoitida o‘zingizning va boshqalarning salomatligi uchun kerak. Shu munosabat bilan ota-onalarga maxsus joylar va boshqa sharoitlar bu yil yaratilmagan. Siz farzandlaringizni kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri <http://adu.uz> sayti orqali kuzatib borishingiz mumkin. Uyda qoling va karantin qoidalariga amal qiling.